

FOYDALI QAZILMALARNING SANOAT TURLARINI O'RGANISHGA DOIR MA'LUMOTLARNI QISQACHA TAHLIL QILISH

Sultonov Shuxrat Adxamovich - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti,
Mavlonova Dilrabo Nomoz qizi – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
magistranti,

Boboqulova Zebo Bahodir qizi - Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
magistranti

***Annotatsiya.** Maqolada foydali qazilmalarning sanoat turlarini o'rganishga doir ma'lumotlarni qisqacha tahlil qilingan bo'lib. Foydali qazilma konlarini razvedka va ekspluatatsiya qilishning geologik va texnik-iqtisodiy muammolarini o'rganish orqali ularni geologik–sanoat turlariga guruhlashga oid masalalar muhokama qilingan va tegishli xulosalar qilingan.*

***Kalit so'zlar:** razvedka, texnik-iqtisodiy, tabiat, sanoat, kon, mineral yoqilg'i, qora metal, rangli metal, asil metal, radioaktiv elementlar, nodir elementlar, kimyo sanoati, texnik xom-ashyolar, flyuslar, qurilish materiallari.*

BRIEF ANALYSIS OF INFORMATION ON THE STUDY OF MINERAL INDUSTRIES

Shukhrat Sultanov - Associate Professor of the Karshi Engineering and
Economics Institute

Dilrabo Mavlonova – Master's student of the Karshi Engineering and Economics
Institute,

Zebo Boboqulova - Master's student of the Karshi Engineering and
Economics Institute

***Abstract.** The article briefly analyzes information on the study of industrial types of minerals. By studying the geological and technical-economic problems of exploration and exploitation of mineral deposits, issues related to their grouping into geological-industrial types were discussed and appropriate conclusions were made.*

***Key words:** exploration, technical and economic, nature, industry, mining, mineral fuel, ferrous metal, non-ferrous metal, precious metal, radioactive elements, rare elements, chemical industry, technical raw materials, fluxes, construction materials.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Foydali qazilma konlarini razvedka va ekspluatatsiya qilishning geologik va texnik-iqtisodiy muammolarini o'rganish, ularni geologik–sanoat turlariga guruhlash ehtiyojini tug'diradi.

Foydali qazilma konlarining geologik tuzilishidagi xilma-xillik umume'tirof etilgan. Aytish mumkinki, tabiatda hech qachon ikki turdagi foydali qazilmaning

bir hil koni mavjud bo'lmaydi. Shu bilan birga, tog' sanoati amaliyoti shundan darak beradiki, faqat eng samarali qazib olinadigan kon guruhlarinigina ajratib ko'rsatish mumkin. Ular geologik–sanoat parametrlarning qulay kombinatsiyalari bilan harakterlanadi. Agar konlarni mahsus qulay konlar guruhiga ajratish mumkin bo'lsa, unda qolgan konlar ulardan foydalanish samaradorligi nuqtai nazaridan boshqa guruhlarga bo'linadi. Shunday qilib, konlarni sanoat guruhlariga ajratish g'oyasi paydo bo'ladi.

Keyinchalik bu masalani o'rganishda konning sanoat va genetik turlari orasidagi juda aniq korrelyatsiyasi kuzatiladi. Shuning uchun konlarni guruhlashda ularning yaxshisi sanoat ahamiyati bo'yicha geologik–sanoat turlari deb atash maqsadga muvofiq.

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Konlarni ma'lum bir geologik–sanoat turlarini o'rganishning boshlang'ich bosqichlarida, u haqidagi ma'lumotlar hali yetarli bo'lmagan vaqtdayoq to'g'ri aniqlash ayniqsa muhim. Bu uning istiqbolini va keyingi razvedka ishlarini baholashni ma'lum darajada belgilab beradi. Razvedkaning keyingi bosqichlarida konning geologik–sanoat turini aniqlashtirish katta ahamiyatga ega.

Umumlashtirilgan na'munaviy ma'lumotlardan kelib chiqib, razvedka ishlari rajalashtiriladi va loyihalashtiriladi, loyiha rejaları va kesmalari tuziladi, razvedkaning oqilona tizimi, razvedkalash tarmoqlarining quyugligi va o'tkaziladigan ishlar ketma-ketligi tanlanadi. Razvedka ma'lumotlarining interpolyatsiyasi va ekstrapolyatsiyasi ma'lum darajada razvedka ma'lumotlarini solishtirishga va bir xil tipli konlarning ekspluatatsiyasiga tayanadi.

Shunday qilib, yaxshi ishlab chiqilgan foydali qazilma konlarining geologik–sanoat tasnifi konni o'rganishning barcha bosqichlarida judayam muhim. Qidirish va razvedka qilishning umumlashtirilgan yechimi bu geologik asoslashning muhim manbaidir, chunki qiyoslash usuli geologiya tizimida katta ahamiyatga ega.

Konlarning ayrim geologik–sanoat turlarining ahamiyati konlarni ishga tushirish va tog' sanoatini (texnika, texnologiyalar va iqtisodiyot) rivojlantirish davomida va yangi konlarni ochilishi yoki avval ma'lum bo'lganlarini qayta ishlanishi bilan bog'liq ravishda o'zgaradi.

Foydali qazilma boyliklarning tabiiy hilma-hilligi va ulardan foydalanishning turli tumanligi juda murakkab xolatni yuzaga keltiradi. Shuning uchun, ilmiy-nazariy jixatdan hali to'liq ishlab chiqilmagan bo'lsada, foydali qazilma boyliklarning sanoat turlarini tasniflash muhim ahamiyatga ega. Konlarning sanoat turlari razvedka ma'lumotlarini tahlil qilish va konni ma'lum guruhlarga ajratish imkonini beradi. Konlarning sanoat uchun yaroqli turlari,

shunga o'xshash sanoat turiga doir razvedka obyektlarini qiyoslash va baholash imkoniyatini bera oladigan razvedka ma'lumotlarini qiyosiy tahlili uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Konlarni sanoat turlariga qarab ajratish haqidagi fikrlar V.M.Kreter va V.I.Smironovning "Foydali qazilmalarni qidirish va razvedka qilish"ga doir bir qator kitoblarida o'z ifodasini topgan. Bir vaqtning o'zida foydali qazilma konlarini sanoat turlariga ajratish va mos ravishda bir tizimga solish-qidirish, razvedka qilish va ekspluatatsiya amaliyotida yanada mukammallashtirilgan va geologiya-razvedka ishlarini olib borish, foydali qazilmalar zahiralari hisoblash, ishlanmalarni bir tizimga solish bo'yicha ishlab chiqilgan turli xil yo'riqnomalarda va uslubiy qo'llanmalarda o'z ifodasini topgan.

Foydali qazilma konlarining sanoat tasnifi, bir tomondan, ularning tabiiy xususiyatlariga, boshqa tomondan, qazib olinadigan mineral xom-ashyoning foydalanish yo'nalishlari va imkoniyatlariga asoslanadi. Qattiq, suyuq va gazsimon foydali qazilmalar sanoat maqsadlariga mos ravishda guruhlarga bo'linadi.

Quyida turli hil foydali qazilmalarning sanoat turlari keltirilgan:

1. Mineral yoqilg'ilar – ko'mir, neft va gaz;
2. Qora metallar – temir, marganets, xrom, titan;
3. Rangli metallar – alyuminiy, mis, qo'rg'oshin, qalay, rux, simob;
4. Asil metallar – oltin, kumush va platinoidlar;
5. Radioaktiv elementlar – asosan uran;
6. Nodir elementlar – litiy, berelliy, tantal, niobiy, sirkoniy;
7. Kimyo sanoati xom-ashyolari – fosforitlar, apatitlar, oltingugurt, flyuorit;
8. Texnik xom-ashyolar – olmosli kemberlitlar, asbest, talk, optik minerallar (island shpati), grafit;
9. Flyuslar o'tga chidamli materiallar, oxaktosh, dolomit, magnezit, kvarts. gil va boshqalar.
10. Qurilish materiallari – marmar, qum, shag'al va boshqalar;
11. Yer osti suvlari, ichimlik suvlari, davolash suvlari va texnik suvlar.

Yuqorida keltirilgan guruxlar ichida bir qator belgilariga qarab yana mayda tabiiy kon turlarini ajratilish mumkin. V.M.Kreyter foydali qazilmalarni sanoat turlarining asosiy belgilari sifatida ularning shakli, o'lchamlari, sifati, ma'dan tanasining yotish holatini qabul qiladi. Chunki bu belgilar konlarni razvedka qilish va qayta ishlash usullariga xal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. V.M.Smironov ma'danli konlarni sanoat turlarini guruhlashda ularning quyidagi belgilariga: konlar tabiatini belgilovchi genetik sinfiga; konlarning shakliga ta'sir ko'rsatuvchi strukturasi; konlar sifatini belgilovchi ma'danning maddiy tarkibiga va yon atrofdagi tog' jinslar tarkibiga urg'u beradi.

Demak, foydali qazilma konlarining sanoat turi deb qalinligi, sifati, shakli, o'lchami va yotish sharoitlari bilan tog' - kon sanoati va xom ashyolarni qayta ishlovchi korxonalar talablarini qoniqtiradigan tabiiy geologik ma'dan tanalariga aytiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Juda ko'plab ma'danlar namoyon bo'lgan joylardan faqat ayrimlarigina sanoat obyektlari bo'lishlari mumkin. Shartli ravishda, qayta ishlash natijasida ulardan olinadigan mahsulot Dunyo bo'yicha konlardan qazib olinadigan u yoki bu mineral xom ashyolarning miqdoriga nisbatan o'xshash konlardan qazib olinadigan mineral xom ashyolar miqdori 1% dan kam bo'lmagan taqdirda ularni sanoat turidagi konlar deb hisoblash qabul qilingan.

Konlarni ishga tushirish va qayta ishlash sanoat korxonalarining taraqqiy etib borishi bilan foydali qazilma konlarining sanoat tasniflari ham o'zgarib boradi. Ba'zi bir konlar o'zining avvalgi ahamiyatini yo'qotadi yoki tugab qoladi (mis va qo'rg'oshingga boy bo'lgan ma'danli tomirlar, qimmatbaho toshlar). Shu bilan bir vaqtda avvallari foydali qazilmalar sifatida qazib olinmagan, yangi konlarni qayta ishlashga e'tibor qaratiladi. Xuddi shunday, mineral o'g'itlarga, radioaktiv xom ashyolarga, nodir elementlarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi bilan apatit, uran, nodir metall ma'danlarining yangi sanoat turlari vujudga keldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /REFERENCES).

1. P.S.Sultonov, X.Chinniqulov. Foydali qazilmalarni qidirish va razvedka qilish. Darslik. T. "Fan va texnologiya. 2015, 352 b

2. Султанов.Ш.А. (2020). Петрохимические и геохимические особенности дайковых серии северной части Чакылкалянского мегаблока (южный Узбекистан). *ТЕСНика*, (3), С 24-33.

3. Султонов Ш.А., Навотова Д.И., Алиева Д.И. Қашқадарё вилояти минерал ресурслари ва улардан фойдаланишнинг географик хусусиятлари //SCIENCE AND EDUCATION IN THE MODERN WORLD: CHALLENGES OF THE XXI CENTURY" NUR-SULTAN, KAZAKHSTAN. – 2020. – С. 12-15.

4. Ярбобоев Т.Н., Очилов И.С., & Султонов Ш.А. (2021). Метасоматические изменения пород при формировании апокарбонатного золотого оруденения Чакылкалянского мегаблока. *International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences*, 2(1), 9-17.

5. Navotova D.I. Theoretical and methodological aspects of resources of land resources in agriculture, *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. – 2022.P. 40-44.

6. Navotova D.I. Main principles for determining the efficiency of the use of land resources// Proceedings of International Educators Conference 2023. Italiya. Vol.2 No. 2 (2023) 25th February, 2023 P. 443-447.

7. Navotova D.I. Possibilities of applying world experience in efficient use of irrigated lands of the republic of Uzbekistan// International conference on scientific research in natural and social sciences. Canada conference. Volume 2. Issue 2. February 5th 2023. P. 182-186.

8. Navotova D.I. Internal Differences In The Use Of Land Resources In The Agriculture Of Kashkadarya Region// Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16. Belgiya. 2023.P.100-104

9. Sulstonov Shuxrat Adxamovich, & Sulstonov Nekro‘z Aliqulzoda. (2024). Yer ichki energiyasi ta‘sirida Yer po‘stining o‘shiga oid ba‘zi ehtimoliy manbalarni nazariy baholash va tahlil qilish. Tadqiqotlar jahon ilmiy – metodik jurnali 34(2), 113–118 betlar. <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/2401>

10. Sulstonov.Sh.A. "Vulqonlarni yer yuzida tarqalishi yoki Yer bag‘ridagi “ajdar” lar" *Образование наука и инновационные идеи в мире* 34.2 (2023): 98-101. <https://newjournal.org/index.php/01/article/view/9689>

11. Sulstonov.Sh.A. "Chakilkalyan-Qoratepa tog‘-konchilik rayoni Yaxton tuzilmasining tektonik rivojlanishi va geologik hosilalari" *Образование наука и инновационные идеи в мире* 31.3 (2023): 174-184-betlar. <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/9114>

12. Sulstonov Shuxrat Adxamovich, Norbekov Ilyos Sherzodjon o‘g‘li. [Yerdagi hayot tarziga ta‘sir etuvchi salbiy omillar va unda insoniyatni o‘rni haqida ba‘zi mulohazalar.](https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/271) *Pedagogs* 46/2 69-74 betlar. <https://pedagogs.uz/index.php/ped/article/view/271>

13. Sulstonov Sh.A., Rabbimov J.Sh. [Tabiiy gazni oltingugurtli birikmalar va karbonat angidrit gazidan tozalash.](http://erus.uz/index.php/er/article/view/5911) *Educational Research in Universal Sciences* 2024/1/29, 122-126 betlar. <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5911>

14. Sulstonov Sh.A, “[Foydali qazilmalar hosil bo‘lishida geodinamik jarayonlarning o‘rni](https://newjournal.org/index.php/new/article/view/11592)”. *Journal of new century innovations.* 47/1, 2024/2/16. 13-21-betlar. <https://newjournal.org/index.php/new/article/view/11592>

15. Sulstonov Sh.A. “[Ko‘mirning hosil bo‘lishida tektonik jarayonlarni tutgan o‘rni](https://newjournal.org/index.php/new/article/view/11593)”. *Journal of new century innovations.* 47/1. 22-29-betlar. <https://newjournal.org/index.php/new/article/view/11593>

16. Sulstonov Sh.A., Sulstonov N.A. [Geosinklinal haqidagi ta‘limotning hozir zamon talqini.](https://econferenceseries.com) *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities.* 2023/11/23. 2/12. 63-68-betlar. <https://econferenceseries.com>

17. Sulstonov Shuxrat Adxamovich, Sulstonov Nekro‘z Aliqulzoda, [Yer tarixida kechgan metallogenik bosqich va davrlar haqida ayrim mulohazalar.](https://www.iupr.ru) *Лучшие интеллектуальные исследования: Vol. 16 No. 1 (2024).* 105-112-betlar.

18. Sulstonov Shuxrat Adxamovich, Sulstonov Nekro‘z Aliqulzoda. [Meteoritlar hosil qilgan kraterlar va ular natijasida foydali qazilmalarni hosil](https://www.iupr.ru)

bo'lishiga doir mulohazalar. Лучшие интеллектуальные исследования: Vol. 16 No. 1 (2024). 113-123-betlar.

19. Sul'tonov Shuxrat Adxamovich. Neft - gaz hosil bo'lishidagi cho'kindi jinlar klassifikatsiyasi xossalarini o'rganish va tahlil qilish. Лучшие интеллектуальные исследования. Vol. 16 No. 1 (2024). 124-130-betlar.

20. Sul'tonov Shuxrat Adxamovich, Navotova Dilnoza Ibrogimovna, O'zbekistonda rangli metallarning geografik tarqalishi va foydalanish xususiyatlari. Экономика и социум. -№2(117)-1 2024, 682-690 betlar, 2024-yil. <http://www.iupr.ru> , ISSN 2225-1545

21. Sul'tonov Shuxrat Adxamovich, "Chaqilkalon tog'lari sharqiy qismida tektonik faolliklar hisobiga hosil bo'lgan ma'dan tanalari xususida" *Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности 2.1* (2024): 112-118.

22. Sul'tonov Shuxrat Adxamovich Qashqadaryo viloyati agrosanoat majmuasi rivojini iqtisodiy tahlil qilish, 2024/10/8 Modern education and development 11/2, 209-219-betlar.

23. Sul'tonov Shuxrat Adxamovich, Sul'tonov Ali Rustam o'g'li Yerning ichki sferalaridagi moddalarning zichligi va uning faolliklari bilan farqlanishi 2024/3/19, TADQIQOTLAR. UZ 34/2, 98-105-betlar.

24. Yarboboev, T.N., Ochilov, I.S., & Sul'tonov, Sh.A. (2023). Chakilkalyan tog'larining metasomatik jinslari va ularning minerallasuv bilan aloqasi. *Yangi asr innovatsiyalari jurnali*, 38 (1), 86-92.

25. Yarboboev T., Sultanov Sh., Aminov F., Navotova D., Non-Traditional oils: analysis of regional distribution and reserves of heavy oil and natural bitumen., Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice <https://www.bulletennauki.com> Т. 6. №7. 2020 <https://doi.org/10.33619/2414-2948/56> 226-234-betlar.

26. Yigitali, Zuxurov, Sul'tonov Shuhrat. "The use of geographic information systems in modern cartography". *Universum: texnicheskije nauki* 11-6 (104) (2022): 52-55. <https://cyberleninka.ru/article/n/the-use-of-geographic-information-systems-in-modern-cartography>